




# ИНСОНИЙЛИКНИ ТАРАННУМ ЭТУВЧИ АДИБ

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

14-21 guruh talabasi Zafar O'rolov



*Haqiqat soqovdir zaifdir inson  
Toshlar ham yig'laydi – sir to'la osmon  
Haqiqiy olam ne? Javob yo'q hayhot!  
Faylasuf to'qiydi hisobsiz yolg'on*

Shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim va jamoat arbobi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yil 10 yanvarda Toshkent shahrida bo'zchi oilasida dunyoga keldi. Dastlab Oqmasjid mahallasidagi eski maktabda, so'ng Munavvarqori Abdurashidxonov tashkil etgan „Namuna“ maktabida boshlang'ich ma'lumot oladi. So'ngra, Navoiy nomidagi ta'lim va tarbiya texnikum-internatida tahsil olgach, O'rta Osiyo Davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida, Leningrad xalq xo'jaligi institutida o'qiydi va og'ir xastalikka chalingani sababli yana Toshkentga qaytib, O'rta Osiyo Davlat Universitetida o'qishni tugatadi.

## USTOZNING HAYOT YO'LLARI

Oybek domla mehnat faoliyatini talabalik yillaridan boshlab, o'rta maktab, texnikum va ishchilar fakultetlarida 1925–1927, Xalq xo'jaligi, Qishloq xo'jalik va Pedagogika institutlarida til va adabiyot fanlaridan dars beradi, Toshkent unstitutining iqtisod fakultetida esa assistent sifatida xizmat qiladi 1930–1935. Ayni paytdagi Madaniy qurilish ilmiy tadqiqot instituti 1933 va Fanlar komiteti huzuridagi Til va adabiyot institutida 1934–1937 ilmiy xodim bolib ishlaydi. 1937-yilda Sovet davlati qatagon siyosatining avj olishi ustozning "millatchi" va "milliy ittiqodchilar" ga xayrixoh kishi sifatida ishdan haydalishi hamda tazyiqqa uchrashiga sababchi boladi. Kambagal oiladan chiqqanligi va internatda



tarbiyalanganligi tufayli qatagondan omon qolgan Oybek domla 1938-yil oxiridagina O'zbekiston o'quv-pedagogika nashriyotiga tarjimon-muharrir sifatida ishga qabul qilinadi. 1941–1945-yillar urushining boshlanishi bilan u yana nomatlub shaxs sifatida quvg'inga uchraydi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi bilan akademiyaning gumanitar bo'limiga 1935–1951, Hamid Olimjon vafotidan keyin esa Yozuvchilar uyushmasi hayatiga rais, "Sharq yulduzi" jurnaliga bosh muharrir 1945–1959 etib tayinlanadi; Til va adabiyot institutining direktori 1950–1952 hamda "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining bosh muharriri 1958–1968 vazifasini bajaradi.

### **YOZGAN SHE'R, DOSTON, QISSA VA ROMANLARI**

Oybek domla adabiyot olamiga kirib kelishi shoir sifatida boshlangan. Uning "Cholg'u tovushi" nomli ilk she'ri 1922-yil "Armugon" jurnalida bosilgan. Shu bilan adibning adabiyot olamidagi uzun yo'li boshlangan. Dastlabki "Tuyg'ular" nomli she'riy to'plami 1926-yilda e'lon qilingan. Shoirning "Ko'ngil naylari" to'plami esa 1929-yilda chop etilgan.

U lirik sheriya bilan bir qatorda dostonnavislik sohasida ham izlanishlar olib borib, "Dilbar - davr qizi" (1932), "O'ch" (1933), "Baxtigul va Sog'indiq" (1934), "Qahramon qiz" (1936), "Gulnoz", "Kamonchi", "Navoiy" (1937) singari dostonlarni yozdi. Yozuvchi bu dostonlarida o'z davrining qahramoni obrazini yaratish va shu davrning muhim ijtimoiy-manaviy masalalarini ko'tarish bilan birga tarixiy o'tmish mavzusiga ham murojaat etdi.

Bundan tashqari 40-yillar oxiri - 50-yillar boshlarida "Qizlar" (1947) dostonidan tashqari, "Hamza" (1948), Pokiston taassurotlari asosida "Zafar va Zahro" (1950) va "Haqqoylar" (1952), Xirosima fojiasiga bag'ishlangan "Davrim jarohati" (1952), va "Guli va Navoiy" (1968) kabi dostonlarini yaratdi.

Shoirning nasriy merosi 5 roman („Qutlug' qon“, „Navoiy“, „Oltin vodiya shabadalar“, „Quyosh qoraymas“ va „Ulug' yo'l“), 4 qissa („Shonli yo'l“, „Nur qidirib“, „Bolalik xotiralarim“ va „Bola Alisher“) hamda bir qancha hikoya va ocherklardan iborat. Ustozning roman janridagi dastlabki tajribasi - "Qutlug' qon" asari yozuvchi hayotining eng tahlikali paytlarida, 1938-yilda, qisqa muddatda yozib tugatilgan va 1940-yilda nashr etilgan.

Xususan, "Quyosh qoraymas" romanining yozilishi haqida adibning o'zi shunday deydi; "...og'ir urush yillarida men «Quyosh qoraymas» degan yangi roman ustida ish boshladim. Ulug' Vatan urushi frontlaridagi o'zbek jangchilarini ko'rsatishga harakat qildim. Men artistlar brigadasi bilan frontga borgan bo'lsam ham, u yerda brigadadan ajralib qoldim. Chunki faqat sharoitni, kishilarni chuqur o'rganibgina jangchi va komandirlarning qahramonligi haqida asar yozish mumkinligini angladim va frontda uch oy qolib ketdim".

"Ulug' yo'l" romani esa "Qutlug' qon" ning mantiqiy davomi sifatida yozilgan. 1942-yil Ikkinchi jahon urushining qizgin bir paytida "Navoiy" romanini yozib tugatgani tasodifiy emas. XV asrdagi Xuroson hayotini puxta o'rgangan adib bu asarda Navoiyning shoir va inson sifatidagi gumanizmi - insonparvarlik mohiyatini katta mahorat bilan gavdalantirib



bergan. Oybek domla mazkur asari bilan o'zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrini boshlab, uning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. "Navoiy" romani keyinchalik o'zbek adabiyotida "Ulugbek xazinasi", "Ko'hna dunyo" Odil Yoqubov, "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" Pirimqul Qodirov singari tarixiy-biografik romanlarning katta maydonga chiqib kelishi uchun zamin hozirlab berdi.

Oybek domla istedadli shoir, yirik nosir bo'libgina qolmay, mashhur olim, publitsist, tanqidchi, jamoat arbobi va tarjimon hamdir. Buning isbotini Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romanini, Lermontovning "Maskarad", Molyerning "Tartyuf" dramalarini, shuningdek, "Antik adabiyot xrestomatiyasi"ning Rim adabiyotiga bag'ishlangan maxsus jildini qisqa muddatda o'zbek tiliga tarjima qilganligi bilan ko'rishimiz mumkin.

Oybek domla haqida adib **Ozod Sharofiddinov** quyidagicha fikr bildirgan, "...agar mendan shuncha yil yashab umringdan topgan quvonching va mamnuniyating nima bo'ldi deb so'rasalar, men hech ikkilanmasdan Oybek va G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Shayxzoda kabi buyuk so'z san'atkorlari bilan zamondosh bo'lganim, ularning suhbatlaridan bahramand bo'lganim, betakror asarlaridagi go'zallik va nafosat sirlarini kashf etib, voyaga yetganim bo'ldi, deb javob berardim. Agar mendan ushalmay qolgan orzularing, armonlaring bormi deb so'rasalar, ha, ular to'g'risida, ayniqsa, Oybek haqida adabiyotshunos sifatida yolchitib yozolmaganim, uning asarlaridagi bitmas-tuganmas boylikni ko'ngildagidek qilib kitobxonlarga yetkazib berolmaganim menga armon bo'lib qoldi, deb javob berardim" degandilar.

Zamondoshlaridan **Abdulla Qahhor** "...talant qanchalik katta, qanchalik qudratli bo'lmasin, har nechuk yuzada bo'lmaydi, konga o'xshash — yerning qa'rida bo'ladi. Bu kon talantni qazib olish uchun avvalo katta aql, undan keyin katta bilim, matonat, kuch-g'ayrat, bularning ustiga dard bo'lishi kerak. Katta talant egasi Oybekda mana shu xislatlarning hammasi mavjud. Oybek mana shu xislatlari bilan xalqimizning ma'naviy xazinasiga katta boylik qo'shdi" deb fikr bildirganlar.

"Oybek domlanning tabiati juda g'alati edi deydi buyuk so'z san'atkorlaridan **Shuhrat domla**. Kibrlanish, maqtanish nima bilmasdi. Yaxshi ish qilishni har sog'lom odamning burchi deb bilardi, dilidagi bor gapni aytib qo'ya qolardi. Bu bor gapning kibrlanishga o'xshab ketishi bilan ishi yo'q edi. Chunki tabiatan hokisor, halol, fikrchan, ko'ngli ovhiq odam edi. Uning harakterini juda yaxshi bilardik, ko'p suhbatlarini eshitganmiz, nasihatlarini olganmiz".

"Oybek ijodi atrofida yuzlab varaq mushohadayu taassurotlar yozish mumkin. Lekin hozir gap domlanning barhayot siymosi haqida ketayotgan ekan, men ham u kishi bilan qisqa, lekin bir umrlik unutilmas uchrashuvlarimni esga oldim, deb **Abdulla Oripov** "...to'g'risini aytsam, o'sha kunlarni eslash hozir men uchun bir tomondan maroqli bo'lsa, bir jihatdan iztiroblidir. Maroqli tomoni shundaki, Oybekday ulug' inson, ulkan adib bilan yuzma-yuz gaplashganimdan bahtiyorman, iztirobli tomoni shundaki, menkim, bir yosh shoir u zot bilan ro'baro' kelganimda qachondir o'sha uchrashuvlarni xotira qilib yozarman, deb o'ylabmidim" degandilar.





“Dadam biz uchun taniqli yozuvchi ham, akademik, jamoat arbobi ham emas, hamma insonlarning dadasi kabi dada edilar. Sho’xligimizni ham erkaligimizni ham ko’tara edilar, juda bolajon edilar. Tabiatlarida bolalarga xos o’ta soddalik, ishonuvchanlik kuchli edi ba’zan qo’shilib sho’xlik qilardilar deydi **Oybek domlaning qizi Gulrang Toshmuhammedova**, “...esimda, qulupnay chiqishi bilan oyimlar bozordan katta tog’orani to’ldirib qulupnay sotib olib kelardilar. Uni likopchalarga solib yeyishga sabrimiz chidamay tog’orani o’rtaga qo’yib olgancha, dahlizda tik turgan holda kim osharga yerdik. Dadam ham bizdan qolmay qulupnayni yeb turib oyimlarga “Zarifa, sanga qolmadi”, deb miriqib kulardil.

Oybek domla haqida u kishining eng yaqin insoni, turmush o’rtog’i **Zarifa Saidnosirovadanda** to’laqonliroq, ko’proq biladigan inson bo’lmasa kerak. Buni u kishining “Oybegim mening” biografik asarida ko’rishimiz mumkin.

Sendadir ko’zlarim, sendadir ko’ngil,

Uzoqlarga Hasrat bilan boqamen.

Na quyosh, na bahor, na gulshanda gul,

Yurakni yupatmas-men sog’inamen.

**Xulosa qilib** Oybek domla XX asrning 50-yillar avvalida yana qatag’on to’lqinining boshlanishi bilan falaj (insult) xastaligiga uchraydi va uzoq, davom etgan xastalik oqibatida 1968-yil 1-iyulda, 63 yoshida vafot etadi.

Hozirgi kunda Oybek ustozning hotirasini abadiylashtirish maqsadida ko’plab joylarga, xususan, 1980-yilda adib yashagan uyda Oybek uy-muzeyi tashkil etilgan va unga haykal o’rnatilgan.

Toshkentdagi maktab, xiyoboni va metro bekatlaridan biri Oybek nomi bilan atalgan, Termiz Davlat Universiteti, Toshkent viloyatidagi jamoa xo’jaligiga Oybek nomi berilgan. 2001-yil “Buyuk hizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan. Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat institutida ham Muso Toshmuhammad o’g’li Oybek nomiga 2020yildan nomdor stipendiya joriy etilgan.

Xulosa o’rnida biz avlodlar buyuk ajdodlarimizga hamisha hurmatda bo’lishimiz ularni ezozlab umr va ijod yo’llarini chuqur o’rganmog’imiz hamda ummonlarcha ibratlar olib uni o’z hayotimizda tatbiq etmog’imiz zarur.